



“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi respublika uchinchi
ilmiy-amaliy anjumani materiallari



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT
TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O‘QITISH VA MALAKA
OSHIRISH MARKAZI**

“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”
mavzusidagi respublika uchinchi ilmiy-amaliy anjumani

Toshkent – 2023

yo'lida kurashar ekan, birinchi galda, millat tili hamda uning jamiyatdagi mavqeyiga alohida urg'u berganlar.

XX asrning boshlarida "Jadid adabiyoti" nomi bilan tarixga kirgan yangicha qalamkashlar avlodi ham milliy til va uning imlo qoidalariga alohida e'tibor qaratib, "Chig'atoy gurungi" kabi adabiy, madaniy uyushmaning ham til dolzarb vazifasiga aylangan.

Xulosa o'rnida aytish joizki, o'zbek tilini davlat tili sifatida o'rnini mustahkamlashda jadid adabiyotining yirik vakillarining o'rnini beqiyos va takrorlanmasdir. Jadidlar ilgari surgan fikrlar o'zining yangiligi bilan sira eskirmaydi va til taraqqiyotiga salmoqli ta'sir o'tkazadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. 2019 yil 21-oktabrdagi 5850-sonli "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni.

2. Avloniy. Turkiy Guliston yohud axloq. – T., 1992. – B.19.

3. Qosimov B. va boshqalar. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. – T.: Ma'naviyat, 2004. – B. 260-261.

4. Behbudiy M. "Ikki emas, to'rt til kerak" maqolasi. (1913)

5. Qosimov B. Maslakdoshlar. – T.: Sharq, 1994. – B.98.

Termin – olam sohaviy manzarasi in'ikosi

Shirinova Yekaterina,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek
tili va adabiyoti universitetikatta o'qituvchisi
moxi5690@mail.ru; yekaterina@navoiy-uni.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada terminning semantik xususiyati, termin semantikasining tushuncha bilan bog'liqligi, umumiste'mol so'zlarining terminologik sistemadan joy olishi, umumiste'mol so'zi hamda terminning umumiy va farqli jihatlari, terminda olam sohaviy manzarasining aks etishi kabi masalalar bank-moliya terminlari misolida yoritilgan.

Kalit so'zlar: termin, semantika, terminlashish, transterminlashish, determinlashish, bank-moliya terminlari, olamning sohaviy manzarasi...

Termin semantikasini o'rganish "tushuncha" bilan chambarchas bog'liq, chunki termin tushunchani aks ettiradi. Olimlar termin va tushuncha o'rtasidagi munosabatni turlicha talqin qilsalar ham, ular

o'rtasidagi aloqadorlikni ta'kidlaydilar [1: 185]. Termin va ilmiy tushuncha o'xshash semantikaga ega bo'lganida ular o'zaro muvofiq kelishi mumkin.

Umuman olganda, umumiste'mol so'zida olamning umumiy manzarasiga oid biror narsa, hodisa, belgi, harakat ifodalangan bo'lsa, termin semantikasida olamning maxsus (sohaviy) manzarasi in'ikos etadi. Shunga muvofiq termin o'ziga xos ma'no va semantik strukturaga ega bo'ladi. Demak, termin va umumiste'mol so'zi o'zaro olamni anglash jihatiga ko'ra farqlanadi.

Shuningdek, termin semantikasi u faol bo'lgan maxsus muhitga bog'liqdir. Ifodalovchi tushunchalariga ko'ra terminlar umumilmiy, sohaviy, tor sohadagi va hokazo terminlarga ajratiladi [1: 185-186].

So'z o'zining terminologik ma'nosi bilan vujudga kelishi, ya'ni mutloq termin bo'lishi yoki umumiste'mol so'zi terminga aylanishi mumkin. Dunyo tilshunosligida terminologik sistemalarda termin hosil bo'lishiga nisbatan bir qator qarashlar mavjud bo'lib, bunday yondashuvlarning ayrimlarida terminologik nominatsiyaning asosiy usullari sifatida umumadabiy til so'zlarining terminlashishi, transterminlashishi va so'z o'zlashishi e'tirof etiladi [2: 86; 3: 104]. Ayrim adabiyotlarda terminologik ma'noning shakllanishiga olib keladigan hodisalar turli tabiat va darajaga ega semantik ko'chish sifatida ham talqin qilinadi [1: 185-186]. Terminologik sistemalar umumiste'mol so'zlari maxsus sohaga mansublik semasini kasb etishi natijasida kengayadi. Terminologik sistemalar taraqqiyotida semantik qobiqda kechadigan kengayish, torayish, o'zgarish natijasida terminlashish, determinlashish, transterminlashish jarayonlari kechadi.

Terminlashish ilmiy va sohaviy tushunchani ifodalash uchun tildagi umumiste'mol so'zlarning ishlatilishidir. Umumiste'mol so'zi terming aylanishidan oldin u maxsus kontekstda qo'llanilishi natijasida semantic maxsuslashishga duchor bo'ladi [4: 95]. Terminlashish jarayoni (rus tilshunosligida mazkur jarayonni yoritishga bag'ishlangan maxsus tadqiqot mavjud [5]) jamiyat hayotining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda bir qator ko'rinishlarda ifodalanadi. *Aktiv, ehtiyoj, transfert, daromad, depressiya, hisob, kapital* singari umumiste'mol so'zlarining bank-moliya terminologiyasiga yakka holatda yoki birikma komponenti sifatida terminlashish jarayoniga uchraganini kuzatish mumkin. Terminlashish jarayoni natijasida terminologik birliklar va umumiste'mol so'zlari orasida omonimiya, polisemiya singari munosabatlar yuzaga kelishi mumkin [6: 48].

Umumiste'mol so'zi terminga aylana olgani kabi muayyan soha terminlari boshqa bir soha terminologik sistemasi birligiga aylana oladi. Bunday jarayon **transterminlashish** [7: 203] deb nomlanadi. Bunga misol qilib *amortizatsiya* (fizik termin), *foiz* (matematik termin) kabi boshqa soha terminlarining transterminlashish natijasida bank-moliya terminlari orasidan o'rin egallashini qayd qilish mumkin.

Tilda terminlashish jarayoniga qarama-qarshi bo'lgan **determinlashish** jarayoni ham kuzatilishi mumkin. Mazkur jarayon xususida Y.V.Akininning ilmiy ishida ma'lumot berilgan [8]. Bu holat asosan terminologik birliklarning kundalik muloqotda juda ko'p ishlatilishi natijasida sodir bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan ular umumiste'mol so'zlari qatlamidan shu qadar muqim o'rnashib oladiki, ularning tub ildizi terminologik birlik ekanligini maxsus etimologik kuzatuvlar natijasidagina aniqlash mumkin. Bunday holat asosan termin – metaforalar hisobiga, so'z semantikasining kengayishi hisobiga sodir bo'ladi. **Moliya** so'zi bank-moliya termini, biroq mazkur nom bilan ataluvchi nashriyot ham mavjud.

Terminlar semantikasiga xos bir ma'nolilik, maxsuslik, emotsional betaraflik ma'lum ma'noda neytral bo'lib, buni terminologik sistemalarda sinonimiya, polisemiya, omonimiya singari hodisalarning kuzatilishida ko'rish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, til birligi sifatida termin olamning sohaviy manzarasini o'zida aks ettiradi. Uning semantikasi esa barcha so'zlar kabi kengayishi va torayishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Литовченко В.И. Семантические особенности термина//Вестник Сибирского государственного аэрокосмического университета имени академика М.Ф.Решетнева. – С.185-186.

2. Константинова Н.Л. Иноязычное заимствование и система языка (на материале англоязычной лексики в финансово-экономической терминосистеме немецкого языка)// Филологические науки. – №2. – Москва, 1999. – С.86;

3. Суперанская А.В и др. Общая терминология: вопросы теории – Москва: Едиторал УРСС, 2004. – С.104.

4. Кайтукова Е. Г. Способы образования и пути развития турецкой экономической терминологии: 60-90 гг. XX в.: дисс... канд.филол.наук. – Москва, 2007. – С.95

5. Косова М.В. Терминологизация как процесс переосмысления русской общеупотребительной лексики: дис... док.филол.наук. – Волгоград, 2004.

6. Ширинова Е.Т. Ўзбек тили банк-молия терминологияси: филол. фанлари ... фалсафа доктори (PhD)... диссертацияси. – Т., 2020. – 152 б. – Б.48.

7. Суперанская А.В., Подольская Н.В., Васильева Н.В. Общая терминология: вопросы теории. – Москва: Наука, 1989. – С.203

8. Акинин Ю.В. Детерминологизация английской экономической терминологии (лингвокультурный и функциональный аспект): дисс...канд.филол.наук. – Самара, 2010.

Intervyu matning lingokulturologik aspekti va nutq madaniyati bilan aloqasi

Dilfuza Shonazarova,

О‘zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi

dsh53125@gmail.com

Annotatsiya. mazkur maqola intervyu matning lingokulturologik aspekti va nutq madaniyati bilan aloqasi haqida .

Kalit so‘zlar: lingokulturologiya, aspekt, konsept intervyu, konsept kognitiv tilshunoslik

Ma’lumki, lingvokulturologiya maxsus fan sohasi sifatida zamonaviy tilshunoslikda bir qancha sermahsul tushunchalarni yuzaga keltirdi: lingvokulturema, madaniyat tili, madaniy matn, madaniyat konsepti, submadaniyat, lingvomadaniy paradigma, madaniy universaliya, madaniy salohiyat, madaniy meros, madaniy an’analar, madaniy jarayon, madaniy ko‘rsatmalar va h.k. Shuningdek, lingvokulturologiyaning asosiy tushunchaviy apparatiga mentalitet, mentallik, taomil, rasm-rusumlar, madaniyat doirasi, madaniyat turi, tamaddun va boshqalar kiradi. Mazkur tushunchalardan eng muhimlari madaniy sema, madaniy fon, madaniy konsept va madaniy konnotatsiya bo‘lib, ular madaniy informatsiyaning til birliklari vositasida ko‘rsata oladi. Intervyu diskurs jarayonida ana shularning aksariyati ishtirok etadi, deyish mumkin va ular intervyuning jonli chiqishi hamda milliy jihatini belgilab beradi.

N.Mahmudov tilshunoslikda lingvokulturologik jarayonni ta’riflar ekan, uni nutq madaniyati bilan aralashtirib yubormaslikni,

Sidiqov Jahongir	
Sport-sogʻlomlashtirish bilan bogʻliq ayrim nomlar haqida mulohazalar	300
Baxtiyarova Fotimaxon	
Astronomiya sohasiga oid bir va koʻp maʼnoli terminlarning tavsifi	303
Qoʻldosheva Nazokat	
Soha lugʻatlari va axborot terminologiyasi masalalari xususida . .	309
Oromova Munisa	
Ornitonimlarning paremalardagi ijobiy semalari.	313
Burxanova Mashxuraxon	
Tilshunoslikda olfaktor idrok masalasi.	319
Turakulova Okila	
Oʻzbek tilini davlat tili sifatida oʻqitishda jadidlar ilmiy merosining ahamiyati	321
Shirinova Yekaterina	
Termin – olam sohaviy manzarasi inʼikosi	324
Dilfuza Shonazarova	
Intervyu matnning lingokulturologik aspekti va nutq madaniyati bilan aloqasi	327
Davronov Azimjon	
Tilga boʻlgan munosabat qoniqarli emas	330
Usmonova Hurinso, Musayeva Yelena	
Oʻzbek tilida dunyoning lingvistik manzarasini shakllantirish roli	334
Mamaraximov Sirojiddin	
Oʻzbek tilshunosligida leksikologiyaning tendensiyasi	338